ISLOM MOLIYASIDA MAJBURIYAT VA OMONAT MEXANIZMLARI: RAHN, VADIYA VA HAVALA.....	987
Sadikova Ra'no Abdullaevna	
FIRIBGARLIK BILAN BOG'LIQ AUDITORLIK TEKSHIRUVI RISKLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI	991
Sirojiddinov Ikromiddin Qutbiddinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ И ОЦЕНКА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ UZAUTO MOTORS.....	996
Шарипов К.А., Зайнутдинова У.Дж.	
XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA BANDLIK BILAN TA'MINLASHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR VA MUAMMOLAR TADQIQI.....	1005
Mirzayev Qulmamat Djonuzokovich, Saparov Murod Irgashovich	
YO'LOVCHI TASHISH XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	1010
Alisher Kurambayev	
SUG'URTA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TAKAFUL SUG'URTASINING O'RNI VA IMKONIYATLARI.....	1014
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING JORIY HOLATI TAHLILI.....	1020
Valikulov Sherzod Zaynitdinovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA MARKETPLEYSLARNI SHAKLLANTIRISH: INVESTITSIYALAR, XARAJATLAR VA FOYDA.....	1029
Axmedova Dilshoda Xayrulla qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	1033
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich, Muminova Shahlo Madaminjon qizi	
OLIY TA'LIMDA GENDER TENGLIKNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	1039
Xaydarova Sayyora	
ANALYZING THE COMPETITIVE ADVANTAGES OF SOUTH KOREA IN GLOBAL MICE TOURISM: HISTORICAL AND CULTURAL DIMENSIONS.....	1043
Ortikova Sabohat, Gulomova Mukhlisa, Ochilova Hilola Farmonovna	
MEHMONXONA BIZNESIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)	1050
Usmanova Gulida Valiyevna	
ETHICAL ASPECTS OF ECOTOURISM: BALANCING SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND MORAL RESPONSIBILITY.....	1055
Gulbakhor Sattarovna Abdullakhanova	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSIYA FAOLLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	1062
Sobirov Abdurasul Abdugafarovich	



KADRLAR BOSHQARUVIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1068
Urazov Sadulla Shodiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY JINOYATLARNING OLDINI OLISHDA KOMPLAENS-NAZORATNING ROLI.....	1074
Zokirov Ismoiljon Ibroximovich	
AGROSERVIS SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH YO'LLARI	1078
Pardayev Mamayunus Qarshibayevich, Feruz Nematullayevich Abilov	
KO'MIR UCHUVCHI KULI ASOSIDAGI FLY ASH BETON VA GEOPOLIMER MATERIALLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN IQTISODIY VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH	1083
Muradov Botir Xayat	
КРЕАТИВНАЯ ЭКОНОМИКА В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПРЕДПОСЫЛКИ В УЗБЕКИСТАНЕ	1091
Рахимова Манзура Хамид кизи	
DUE DILIGENCE IN AUDITING AS A FACTOR ECONOMIC EFFICIENCY IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	1098
Sidikov Dilmurod	
MAJBURIYATLAR HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1102
Ergasheva Vasila Abdumajitovna	
ИННОВАЦИОННЫЕ МАРКЕТИНГОВЫЕ СТРАТЕГИИ И ПРОЦЕССЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ	1106
Рахимова Тамила Баходур кизи	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1113
Abdusattarova Dildora Bohodirovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH BORASIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	1120
Djurayeva Lola Abdugabbarovna	
HUDUDLARDA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA DAVLAT BUDJETIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1125
Egamnazarova Gulnoza Xolmurod qizi	
O'ZBEKISTON ISLOHOTLARI ISTIQBOLIDA BARQAROR RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI HAMDA ESG INDIKATORLARINI JORIY ETISH	1129
Mirzaaxmedova Nodira Asqarali qizi, Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi	
O'ZBEKISTONDA KREDIT VA MOLIYAVIY TIZIMNI MODERNIZATSIYALASH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	1135
Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich	
O'ZBEKISTON FRANCHAYZING BRENDLARINING XALQARO BOZORLARDA IMIJINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY BRENDUKLAR YARATISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY YECHIMLARI	1140
Xodjayev Anvar Rasulovich	
MINTAQANING INVESTITSIYA OQIMLARI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK TAHLILI	1147
G'oyibnazarov Muhammad Xamidbekovich	
O'ZBEKISTON AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH STRATEGIYALARI VA IMKONIYATLARI	1152
No'monov Otabek O'rmonjon o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION FAOLIYATI VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	1157
Xakimov Akbar Anvarovich	



TIJORAT BANKLARI XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	1162
Atamuradov Bozorboy Berdimuratovich	
O'ZBEKISTONDA MOLIVAVIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	1168
Sayitbayev Shermirza Datkamirzaevich	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ БЮДЖЕТОВ ФТИЗИАТРИЧЕСКИХ УЧРЕЖДЕНИЙ ПРИ ПЕРЕХОДЕ К ОПЛАТЕ ПО КЛИНИКО-ЗАТРАТНЫМ ГРУППАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1173
Эрматов Зоҳид Шавкатович	
SUSTAINABLE TOURISM IN KARAKALPAKSTAN: LINKING CULTURE, COMMUNITIES, AND ECOLOGY.....	1179
Indira Ermekbaeva	
TARIFLASH VA REZERVLAHNING ILMIY-AMALIY MODEL (O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN).....	1184
Maxmudov Komoliddin Rozmetovich	
XORIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	1188
Akmalova Ziyoda Doniyorovna	



XORIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Akmalova Ziyoda Doniyorovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi

ziyodamullaboyeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola O'zbekiston sharoitida xorijiy tajriba asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada avvalo kichik biznes tushunchasi, uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati hamda xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni tahlil qilinadi. Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlari, innovatsion yondashuvlar va davlat dasturlari o'rganiladi. Xorij tajribasining o'zbek sharoitida tatbiq etish imkoniyatlari hamda mavjud cheklovlar nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Maqola doirasida, kichik biznes subyektlarini moliyaviy, huquqiy va kadrlar bilan ta'minlashning asosiy tamoyillari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, xorijiy tajribada qo'llanilayotgan startap ekotizimi, inkubator va akselerator loyihalari, mentorlik tizimlari kabi innovatsion mexanizmlar tahlil qilinadi. O'zbekiston sharoitida ushbu mexanizmlarni tatbiq etish orqali tadbirkorlik muhitini soddalashtirish, investitsion jalbni oshirish va raqobatbardosh biznes subyektlarini shakllantirish imkoniyatlari ko'rsatiladi.

Maqola nazariy tahlil, qiyosiy va konseptual yondashuvlarga asoslangan bo'lib, tadbirkorlikni rivojlantirishdagi zamonaviy tendensiyalarni ochib beradi. Xorij tajribasini o'rganish va uni mahalliy sharoitga moslashtirish orqali kichik biznesning barqaror rivojlanishini ta'minlash, iqtisodiy diversifikatsiya va ish bilan bandlikni oshirishga hissa qo'shish mumkinligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, xorijiy tajriba, innovatsiya, investitsiya, startap.

Abstract. This article is devoted to studying the theoretical aspects of developing small businesses and private entrepreneurship in Uzbekistan based on foreign experience. The article analyzes the concept of small business, its socio-economic importance, and the role of private entrepreneurship in the national economy. It also examines effective mechanisms, innovative approaches, and state programs used in foreign countries to support small businesses. The possibilities of applying foreign experience in the Uzbek context, as well as existing constraints, are theoretically analyzed.

Within the article, the main principles of providing small business entities with financial, legal, and human resources support are considered. Innovative mechanisms such as startup ecosystems, incubators, accelerators, and mentoring systems, which are applied abroad, are also analyzed. Implementing these mechanisms in Uzbekistan can simplify the entrepreneurial environment, attract investment, and create competitive business entities.

The article is based on theoretical, comparative, and conceptual approaches, revealing current trends in entrepreneurship development. Studying foreign experience and adapting it to local conditions can ensure the sustainable development of small businesses, promote economic diversification, and increase employment.

Key words: small business, private entrepreneurship, foreign experience, innovation, investment, startup.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению теоретических аспектов развития малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане на основе зарубежного опыта. В статье анализируются понятие малого бизнеса, его социально-экономическое значение и роль частного предпринимательства в национальной экономике. Также рассматриваются эффективные механизмы, инновационные подходы и государственные программы поддержки малого бизнеса в зарубежных странах. Возможности применения зарубежного опыта в узбекских условиях, а также существующие ограничения, рассматриваются теоретически.



В статье рассматриваются основные принципы обеспечения субъектов малого бизнеса финансовыми, юридическими и кадровыми ресурсами. Анализируются инновационные механизмы, применяемые за рубежом, такие как стартап-экосистемы, инкубаторы, акселераторы и менторские программы. Их внедрение в Узбекистане позволяет упростить предпринимательскую среду, привлечь инвестиции и сформировать конкурентоспособные бизнес-структуры.

Статья основана на теоретическом, сравнительном и концептуальном подходах, раскрывающих современные тенденции развития предпринимательства. Изучение зарубежного опыта и его адаптация к местным условиям могут обеспечить устойчивое развитие малого бизнеса, способствовать экономической диверсификации и увеличению занятости населения.

Ключевые слова: малый бизнес, частное предпринимательство, зарубежный опыт, инновация, инвестиции, стартап.

KIRISH

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik zamonaviy iqtisodiyotning asosiy drayverlaridan biri bo'lib, u ish bilan bandlikni oshirish, innovatsiyalarni joriy etish, milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Prezident Sh. Mirziyoyevning so'zlariga ko'ra, bankning faoliyati ham, ishlash usullari ham, jumladan, moliyalashtirish mexanizmlari ham jiddiy o'zgarishlarga uchraydi. Xususan, har bir hududdagi bank huzurida kichik biznes markazi tashkil etiladi. Mazkur markazlar tadbirkorlar tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan biznes loyihalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Ular yangi loyihalarni amalga oshirishga intilayotgan tadbirkorlarni mustaqil ravishda o'qitish, zarur mutaxassislarni jalb etish, bugxalteriya hisobi, audit, soliq, marketing, yuridik va boshqa xizmatlarni taklif etadi[1].

Xususiy tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy jarayonlarning moslashuvchanligini oshiradi, yangi ish o'rinlarini yaratadi va ichki bozorda raqobatni kuchaytiradi. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy rivojlanish strategiyasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan [3,4].

Tajriba natijasida, mamlakatimizda kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, moliyaviy va huquqiy resurslar, innovatsion tizimlar hali yetarlicha samarali ishlamayotganini bilish mumkin. Shuningdek, xorijiy tajriba orqali olingan samarali yondashuvlar va davlat dasturlarini tatbiq etish imkoniyatlari yetarli darajada o'rganilmagan, bu esa kichik biznesning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilib kelmoqda.

Xorijiy mamlakatlarning tajribasidan ko'rish mumkinki, kichik biznes va startaplarni rivojlantirishda davlatning faol roli, moliyaviy va huquqiy qo'llab-quvvatlash, startap inkubatorlari, akselerator dasturlari, mentorlik tizimlari, shuningdek innovatsion ekotizimlarning joriy etilishi muhim ahamiyatga ega[5,6]. AQSh va Germaniyada startaplarni rivojlantirish uchun yaratilgan inkubator va akselerator loyihalari, shuningdek, moliyaviy grantlar va soliq imtiyozlari tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlari sifatida tan olingan. Shu tajribani O'zbekistonga moslashtirish orqali kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion faoliyatini rag'batlantirish va ichki hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mumkin. Masalan, professor Asatullayev Xurshid Sunatullayevich o'z ilmiy ishlarida kichik biznesni milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil sifatida talqin etadi. Uning fikricha, davlat tomonidan soliq imtiyozlari berilishi, ma'muriy to'siqlarni kamaytirish hamda qulay biznes muhitini shakllantirish kichik biznes subyektlarining faolligini oshiradi[2]. Muallif bu yondashuvni to'liq qo'llab-quvvatlaydi, O'zbekiston sharoitida kichik biznes aholi bandligini ta'minlash va hududiy rivojlanishda muhim o'rin tutadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqot O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida xorijiy tajribani o'rganish va uni tatbiq etishning nazariy jihatlarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi xorijiy mamlakatlarda kichik biznesni rivojlantirishda qo'llanilgan muvaffaqiyatli mexanizmlarni o'rganish, ularni mahalliy sharoitga moslashtirish va O'zbekiston sharoitida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning samarali strategiyalarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot materiali sifatida birinchi navbatda ilmiy adabiyotlar va statistik ma'lumotlar olinib, ular asosida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Jahon banki (World Bank), OECD va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan kichik biznes, startaplar va xususiy tadbirkorlik bo'yicha so'nggi statistik hisobotlar tahlil qilishga erishildi. Bu ma'lumotlar tadqiqotga asosiy kvantitativ va sifatli asos bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, tadqiqot doirasida AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya va Singapur kabi ilg'or mamlakatlarda kichik biznes va startaplarni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan davlat dasturlari, inkubator va akselerator loyihalari, moliyaviy va huquqiy qo'llab-quvvatlash tizimlari ham batafsil o'rganildi. Tadqiqot materialini boyitish maqsadida soha bo'yicha ilgari nashr etilgan ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar, konferensiya materiallari va ekspertlarning tahliliy hisobotlari chuqur tahlil qilindi.



Shuningdek, dotsent Norboyev Odil Abraevich o'z tadqiqotlarida kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalasiga alohida e'tibor qaratadi. U imtiyozli kreditlar, mikromoliyalash tizimi va bank xizmatlarining soddalashtirilishi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi[9]. Muallif mazkur fikrga qo'shiladi va xorijiy tajribada ham aynan moliyaviy mexanizmlar kichik biznes rivojining asosiy omili bo'lib xizmat qilganini e'tirof etadi. Professor Hajiyev Baxtiyor Dushabayevich esa kichik biznesni rivojlantirishda innovatsiyalar va raqobat muhitini shakllantirish muhimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, zamonaviy texnologiyalarni tadbirkorlik faoliyatiga joriy etish mahsulot va xizmatlar raqobatbardoshligini oshiradi. Muallif bu ilmiy pozitsiyani qo'llab-quvvatlaydi, chunki rivojlangan davlatlar tajribasi innovatsion kichik biznes modellari yuqori samaradorlikka ega ekanini ko'rsatadi[5]. Xorijiy olimlardan Joseph Schumpeter tadbirkorlikni iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholaydi. Uning innovatsion tadbirkorlik nazariyasiga ko'ra, aynan kichik biznes yangi g'oya va texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi[7]. Muallif mazkur nazariyani O'zbekiston sharoitida, ayniqsa, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish orqali samarali tatbiq etish mumkin, deb hisoblaydi. Shuningdek, amerikalik iqtisodchi Peter Drucker tadbirkorlikni strategik boshqaruv va samarali menejment bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida izohlaydi. Tadbirkorlik tasodifiy faoliyat emas, balki puxta rejalashtirilgan va tizimli boshqaruv mahsulidir - deya fikr bildirgan[12]. Muallif bu yondashuvni dolzarb deb hisoblaydi, chunki O'zbekistonda kichik biznes subyektlarida boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi bir nechta yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Asosan nazariy tahlil yordamida xorijiy va mahalliy adabiyotlar, huquqiy normativlar, statistika ma'lumotlari va ilg'or tajribalar solishtirildi, ularning asosiy xulosalari va muhim konseptual elementlari aniqlab olindi. Qiyosiy tahlil qilish orqali xorijiy mamlakatlardagi kichik biznesni rivojlantirish mexanizmlari va O'zbekiston sharoitidagi mavjud tizimlar solishtirildi, ularning afzalliklari, kamchiliklari va mavjud cheklovlari aniqlashtirildi. Shu bilan birga, xorijiy tajriba asosida O'zbekistonga moslashtirilgan kichik biznes rivojlantirish konseptual modeli ishlab chiqildi, u mamlakatimiz sharoitida amaliy qo'llanilishi mumkin bo'lgan innovatsion va samarali strategiyalarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot natijalarini boyitish va ularning amaliy ahamiyatini oshirish maqsadida tadbirkorlik sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, startap asoschilari va davlat organlari vakillari bilan ekspert so'rovlari va maslahatlar o'tkazildi. Bu yondashuv tadqiqotga qo'shimcha ilmiy asoslar berdi va natijalarning ishonchligini mustahkamladi.

Shu tarzda ishlab chiqilgan metodologiya tadqiqotchiga O'zbekistonda kichik biznes muhitini xorijiy tajribalar bilan taqqoslash, muvaffaqiyatli mexanizmlarni aniqlash va ularni mahalliy sharoitga tatbiq etish imkonini beradi. Bundan tashqari, boshqa tadqiqotchilar ushbu metodlarni takrorlab, natijalarni qayta tekshirishi, xulosalarni mustahkamlashi va ilmiy ishlar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishi mumkin. Tadqiqotning keng qamrovi, metodologik aniqligi va qiyosiy tahlil elementlari uning ilmiy va amaliy qiymatini oshiradi hamda O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga samarali hissa qo'shadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida xorijiy tajribalarni tatbiq etish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot davomida o'rganilgan AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya va Singapur kabi ilg'or mamlakatlarda kichik biznesni rivojlantirishda qo'llanilayotgan mexanizmlar yuqori samaradorlik bilan ajralib turadi. Jumladan, barcha mamlakatlarda startaplar va kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlashda inkubator va akselerator loyihalari, shuningdek, startap ekotizimi va mentorlik tizimi muhim rol o'ynaydi. Ushbu tizimlar tadbirkorlarga moliyaviy yordam berish, biznes g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish, innovatsion loyihalarni rivojlantirish va bozor talablariga moslashish imkonini yaratadi. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash, grantlar, kredit kafolatlari va soliq imtiyozlari tadbirkorlarning startaplarini barqaror rivojlantirish, raqobatbardosh mahsulot va xizmatlar yaratishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ekspertlar tahliliga ko'ra, mentorlik tizimi va startap ekotizimi tadbirkorlik subyektlarining muvaffaqiyat darajasini sezilarli darajada oshiradi, innovatsion faoliyatni rag'batlantiradi va yangi ish o'rinlarini yaratishga yordam beradi.

Xorijiy tajribalarni tatbiq etish orqali O'zbekistonda kichik biznes va startaplarning barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkin. Xususan, inkubator va akselerator loyihalarini kengaytirish, startap ekotizimini shakllantirish, mentorlik tizimini rivojlantirish va innovatsion dasturlarni tatbiq etish orqali tadbirkorlik muhitini soddalashtirish, investitsiya jalb qilish va yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlari mavjudligi aniqlangan. Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlarda muvaffaqiyatli ishlayotgan mexanizmlarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali xususiy tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligi oshadi, innovatsion mahsulotlar va xizmatlar soni ko'payadi, iqtisodiy diversifikatsiya jarayoni tezlashadi va milliy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shadi.



Mamlakatda kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish zarurati mavjud. Bunday strategiyalar nafaqat tadbirkorlik subyektlarining barqarorligini oshiradi, balki iqtisodiy o'sish, ish bilan bandlik va investitsion faollikni sezilarli darajada kuchaytiradi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari kelgusida ilgari suriladigan ilmiy va amaliy tavsiyalar uchun nazariy va konseptual asos bo'lib xizmat qiladi, bu esa davlat organlari, xususi sektor vakillari va tadbirkorlar uchun samarali tadbirkorlik siyosatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Natijalardan aniqlandiki, O'zbekistonda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini modernizatsiya qilish, innovatsion inkubatorlar va akseleratorlarni rivojlantirish, shuningdek mentorlik va startap ekotizimini kengaytirish zarurligini aniq ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda kichik biznes va xususi tadbirkorlikni rivojlantirish mexanizmlari xorijiy mamlakatlardagi ilg'or tajribalar bilan solishtirganda yetarlicha shakllanmagan. Xorijiy mamlakatlarda, jumladan AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya va Singapurda inkubatorlar, akseleratorlar, mentorlik tizimi va startap ekotizimi kichik biznesni barqaror rivojlantirishda asosiy vositalar sifatida xizmat qiladi. Bu natijalar Jahon banki va OECD hisobotlaridagi ma'lumotlar bilan mos keladi, ular ham innovatsion qo'llab-quvvatlash tizimlari va moliyaviy mexanizmlarning tadbirkorlik rivojida muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi[5,6].

O'zbekiston sharoitida esa, bank kreditlari va davlat subsidiyalari mavjud bo'lishiga qaramay, startap grantlari, soliq imtiyozlari va innovatsion dasturlar yetarlicha rivojlanmagan. Mentorlik tizimi va treninglar cheklanganligi yangi tadbirkorlarning o'z biznesini samarali boshqarish va rivojlantirishdagi imkoniyatlarini kamaytiradi. Shu bilan birga, inkubator va akselerator loyihalari mavjud bo'lsa-da, ularning faoliyati keng qamrovli emas va startap ekotizimi to'liq shakllanmaganligi natijalarni cheklovchi omil sifatida aniqlangan. Bu holat avvalgi tadqiqotlar natijalari bilan ham mos keladi. Masalan, iqtisod fanlari nomzodi (PhD), dotsent Ismoilov Bahodir Abdug'aniyevich va iqtisod fanlari nomzodi (PhD), dotsent Karimov Bahrom Erkinovich O'zbekistonda xususi tadbirkorlikni rivojlantirish mexanizmlarining qisman ishlashini va innovatsion yondashuvlarning yetarli emasligini ta'kidlagan[3,4].

Xorijiy tajribalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali kichik biznesning barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkin. Xususan, inkubator va akselerator loyihalarini kengaytirish, startap ekotizimini shakllantirish va mentorlik tizimini rivojlantirish orqali tadbirkorlik muhitini soddalashtirish, investitsiya jalb qilish va yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlari mavjud. Shu bilan birga, xorijiy tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish orqali xususi tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligi oshadi, innovatsion mahsulotlar va xizmatlar soni ko'payadi hamda iqtisodiy diversifikatsiya jarayoni tezlashadi.

Muhokama davomida aniqlanishicha, O'zbekiston sharoitida kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha samarali strategiyalar ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish nafaqat tadbirkorlik subyektlarining barqarorligini oshirishga, balki milliy iqtisodiy o'sish, ish bilan bandlik va investitsion faollikni sezilarli darajada kuchaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari davlat organlari, xususi sektor vakillari va tadbirkorlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda asosiy nazariy va konseptual manba bo'lib xizmat qiladi.

Shu tarzda, natijalar muhokama qilinganda, O'zbekiston sharoitida xorijiy tajribalarni tatbiq etish orqali kichik biznesni rivojlantirish va xususi tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlari aniqlanadi, bu esa mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiyasi, innovatsion faollik va ish bilan bandlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot O'zbekistonda kichik biznes va xususi tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida xorijiy tajribalarni o'rganish va tatbiq etishning nazariy jihatlarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi yakuniy xulosalar chiqarildi

1. AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya va Singapur kabi yetakchi davlatlar tajribasi shuni ko'rsatdiki, biznes-inkubatorlar, akselerator loyihalari va mentorlik tizimi kichik biznesning barqaror o'sishini ta'minlovchi asosiy drayverlardir. Ushbu zamonaviy mexanizmlar tadbirkorlik subyektlarini nafaqat moliyaviy, balki innovatsion va strategik jihatdan ham yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi.

2. Bugungi kunda O'zbekistonda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning mustahkam poydevori (bank kreditlari va davlat subsidiyalari tizimi) mavjud bo'lib, bu tizimni yanada takomillashtirish uchun yuksak imkoniyatlar shakllangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mamlakatimizda:

Innovatsion infratuzilmani kengaytirish: Mavjud inkubator va akseleratorlar faoliyatini yanada takomillashtirish orqali startap ekotizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqish;

Qo'llab-quvvatlash instrumentlarini diversifikatsiya qilish: Startap grantlari, maqsadli soliq imtiyozlari va maxsus innovatsion dasturlarni joriy etish orqali tadbirkorlik muhitining jozibadorligini oshirish;

Intellektual ko'makni kuchaytirish: Mentorlik tizimini tizimli yo'lga qo'yish orqali tadbirkorlarning strategik salohiyatini yuksaltirish uchun barcha zaruriy resurslar mavjud.



3. Xorijiy tajribani tatbiq etish imkoniyatlariga shuni ko'rsatdiki, inkubator va akselerator loyihalarini kengaytirish, startup ekotizimini shakllantirish, mentorlik tizimini rivojlantirish va innovatsion dasturlarni tatbiq etish orqali O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkin. Bu esa tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va investitsion jalbni kuchaytirishga yordam beradi.

4. Tadqiqot natijalari davlat organlari, xususiy sektor va tadbirkorlar uchun kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha samarali strategiyalar ishlab chiqishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, xorijiy tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish orqali iqtisodiy diversifikatsiya, innovatsion faollik va milliy iqtisodiy barqarorlikni oshirish mumkin.

5. Mazkur tadqiqot kelgusida kichik biznesni rivojlantirish mexanizmlari, startup ekotizimi va inkubatorlar samaradorligini o'rganish bo'yicha yangi ilmiy ishlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi va strategik tavsiyalar ishlab chiqishga imkon yaratadi.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha samarali yondashuvlarni ishlab chiqish va tatbiq etish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, ish bilan bandlikni oshirish va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi tasdiqlab berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. PQ-366-son. 15.11.2023.
2. Asatullayev X.S. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning institutsional asoslari. – Toshkent : Iqtisodiyot nashriyoti, 2019. – 164 b.
3. Azizov D., Tursunov F. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznesni rivojlantirish mexanizmlari va O'zbekistonga tatbiq etish imkoniyatlari. – T.: Journal of Entrepreneurship Studies, 2019. – B.45–62.
4. Ergashev R. Kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va huquqiy asoslari. – T.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2018. – B.176.
5. Hajiyev B.D. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish masalalari. – Toshkent : Iqtisodiyot va moliya nashriyoti, 2021. – 176 b.
6. Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari. – T.: Iqtisodiyot va moliya nashriyoti, 2020. – B.152.
7. Joseph Schumpeter. The Theory of Economic Development. – Cambridge, MA : Harvard University Press, 1934. – 255 p.
8. Karimov B. Innovatsion tadbirkorlik va startup ekotizimlari: O'zbekiston va xorijiy tajribalar taqqoslash. – T.: O'zbekiston iqtisodiy tadqiqotlari markazi, 2021. – B.178.
9. Norboyev O.A. Kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish. – Toshkent : Fan va jamiyat, 2020. – 142 b.
10. OECD & World Bank. SxME Policy Index: Eastern Partner Countries 2020. – Paris & Washington, DC: OECD Publishing, 2020. – B.198.
11. OECD. Financing SMEs and entrepreneurs 2022: An OECD Scoreboard. – Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development, 2022. – B.240.
12. Peter Drucker. Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. – New York : Harper & Row Publishers, 1985. – 277 p.
13. Rahmonov S., Saidov M. Startup inkubatorlarining tadbirkorlik rivojiga ta'siri: Global tajriba va O'zbekiston sharoiti. – T.: Central Asian Journal of Business, 2021. – B.12–28.
14. World Bank. Doing Business 2021: Comparing business regulation in 190 economies. – Washington, DC: World Bank Group, 2021. – B.312.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
